



Kundalik hayotimizda rassomlarning ishlarini qayerlarda uchratishimiz mumkin?



Rassomning yuksalishi

Siz sevib tomosha qiladigan “Oppog‘oy va yetti gnom”, “Bembi”, “Mikki Maus”, “Uyqudagi malika”, “101 dalmatin” va boshqa “Walt Disney Pictures” kompaniyasining multfilmlari taniqli amerikalik

kinorejissor-multiplikator, rassom va prodyuser Uolt Disneyga tegishlidir. U 1901-yil 5-dekabr kuni AQShning Chikago shahrida dunyoga kelgan. Uning bolaligi baxtsiz hodisalar, ko'ngilsiz voqealar ichida o'tgan. Shunday damlarda onasi o'g'lini g'aroyib ertaklar aytib ovutardi. Ehtimol, shuning uchun ham Uolt sirli sarguzashtlar o'lkasiga kirib borgandir. U 12 yoshidan boshlab turli xil ertaklarga rasmlar, karikaturalar chizib, jurnal va gazeta tahririyatlariga olib boradi. Afsuski, bu mashqlarni birorta tahririyat qabul qilmaydi. Uning keyingi urinishlari ham besamar bo'lgach, u taqdirga tan berib, do'sti bilan hamkorlikda biznes boshlaydi. Bu unga yashash uchun yetarli daromad keltiradi. Ammo u sevimli mashg'uloti, karikaturalar chizishni davom ettiraveradi. Uning birinchi "Alisa mo'jizalar mamlakatida" nomli multiplikatsion asari muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Ammo bu Uoltning ruhini tushirmaydi. Aksincha, yanada ko'proq mehnat qilishga undaydi. Shu tariqa Mikki Maus, Donald Dakk, Guffi Dog kabi obrazlar dunyoga keldi. Bu qahramonlarni esa hamma birday yoqtirib qoldi. Endi butun dunyo ushbu obrazlarni sevib tomosha qilar, e'tirof etardi. Sevimli multiplikator 65 yillik umri davomida 29 marta "Oskar" mukofoti hamda 700 dan ortiq mukofot bilan taqdirlangan.

("Gulxan" jurnalidan)



1. Asar kim haqida ekan?
2. Asar qahramoni haqida qanday ma'lumotlarga ega bo'ldingiz?
3. Uning o'z maqsadiga erishishiga nima sabab bo'lgan deb hisoblaysiz?
4. Sizga qaysi multfilm qahramonlari yoqadi? Nima uchun?
5. Agar siz multfilm yaratsangiz, u nima haqida bo'lar edi?
6. Asar nima uchun bu bo'limda berilgan?



karikatura – tasviriy san'at turi, hajviy va kulgili qilib ishlangan rasm



- **Berilgan parchani o'qing. Uni davom ettiring.** Uning bolaligi baxtsiz hodisalar, ko'ngilsiz voqealar ichida o'tgan. Shunday damlarda onasi o'g'lini g'aroyib ertaklar aytib ovutardi.
- **Berilgan parchadan oldingi voqeani so'zlab bering.** Sevimli multiplikator 65 yillik umri davomida 29 marta "Oskar" mukofoti hamda 700 dan ortiq mukofot bilan taqdirlangan.
- **Asar qahramoniga tavsif bering.**



"Mening multfilmim" mavzusida kichik matn tuzing.